

## BACHADON CHANDIGI BOLGAN HOMILADOR AYOLLARDA AKUSHERLIK TAKTIKASI.

**Turdaliyeva Muxlisaxon Umidjon qizi**

*Ilmiy rahbar: dotsent Yuldasheva O.S.*

*Andijon davlat tibbiyot instituti, 2-akusherlik va ginekologiya kafedrası,  
Andijon, Ozbekiston*

**Tadqiqotning dolzarbligi.** Hozirgi vaqtda operativ yol bilan tugruqlar foizining oshishi kuzatilmoqda. Ortacha kesarcha kesish 15—18 % ni tashkil etadi. Yuqori korsatkich shifokorlar tomonidan suistemol sifatida baholanadi. 2021-yilda Andijon shahridagi 2-tugruqxonada 8768 ta tugruq bolib, 1987 tasi kesarcha kesish bilan yakunlangan.

Zamonaviy akusherlikda operativ tugruqlar ulushining ortishi natijasida bachadonida chandig'i bor homilador ayollar kontingenti sezilarli darajada kengaymoqda. Kesarcha kesish amaliyotidan keyingi bachadon chandig'ining yetishmovchiligi, akusherlik qon ketishlari va bachadon yorilishi kabi og'ir asoratlar xavfini tug'diradi. Shu sababli, bunday ayollarda tugruqni boshqarishning xavfsiz usullarini aniqlash, chandiq holatini ob'ektiv baholash mezonlarini ishlab chiqish va asoratlarni oldini olish akusherlik sohasidagi eng dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

**Tadqiqotning maqsadi.** Bachadon chandigi bolgan homilador ayollarda akusherlik taktikasini taxlil qilish va tugruqni olib borish algoritmini ishlab chiqish.

**Tadqiqot materiali va usullari.** 25 nafar bachadon chandigi bolgan qayta tugma ayollarda tugruq kechishi klinik tahlil qilindi. Ulardan homiladorlikning ikkinchi yarmida chandiq qalinligining ozgarishi, bachadon chandigining strukturasi ogriqliligi, undagi dikomfort, ayollardagi shikoyatlar baholandi. Tekshiruv Andijon shahridagi 2-akusherlik kompleksida olib borilgan tugruq tarixlariga kora: 18 yoshgacha 2%, 20—30 yosh 80%, 30—40 yosh 18%ni tashkil etgan. Barcha tekshirilgan ayollar optimal reproduktiv yoshda bolgan.

**Tadqiqot natijalari.** Bemorlarning ortacha yoshi  $26,8 \pm 3,9$  yoshni tashkil etdi. Tekshirilgan 30 nafar ayoldan 87% da ekstragenital patologiyalar aniqlangan bolib, kamqonlik umumiy ayollarning 75% da, siydik yollari infeksiyasi 32,5% ida, xazm azolari kasalliklari 23,2%ida, endokrin kasalliklar va ortiqcha vazn 16,7%ida aniqlangan.

**Ultratovush diagnostikasi** natijalariga kora homiladorlikning ikkinchi yarmida chandiq qalinligi 2,7—4,6 mm oraligida ozgargan. Ayollarning 64%ida (16 nafar) chandiq qalinligi muddatga yaqinlashgan sari 3,0 mm dan past korsatkichlarga

tenglashgan, bu holat bunday bemorlarda chandiқ hududida ortiqcha taranglikni keltirib chiqarishi kuzatildi.

Subyektiv shikoyatlar aniqlanganda ularning **10 nafarida (40%)** chandiқ sohasida doimiy yoki vaqti-vaqti bilan ogriqlilik, **5 nafarida (20%)** jismoniy faollik va homila harakatlari bilan kuchayuvchi diskomfort, **3 nafarda (12%)** kuchayuvchi kuzatish talab qiluvchi toqay ogriqlar qayd etildi. Shikoyatlarning mavjudligi ultratovush korsatkichlari bilan bevosita bogliq bolib, chandiқ qalinligi **3,0 mm dan past** bolgan ayollarda diskomfort chastotasi yuqoriligi aniqlandi.

Tugruqning yakunlanish usullari kuzatilganda **14 nafar ayolda (56%)** vaginal yol bilan tugruq muvaffaqiyatli olib borildi. **11 nafar ayolda (44%)** esa tugruq dinamikasining sustlashuvi, chandiқ sohasida ogriqlarning kuchayishi, yoki homila holati bilan bogliq xavflar sababli **operativ yol — qayta kesar kesishga** murojaat etildi.

Ayollarda oldingi kesarcha kesish 2-5 yil oldin pastki bachadon segmentida bajarilgan. Homiladorlik va operatsiyadan keyingi davr asoratsiz kechgan. Barchasida partogramma yuritilgan. Ularning 20 tasi tabiiy yol bilan asoratsiz tuggan. 5 nafar ayolda tugruq chozilgan, 2 tasida amniotomiya va oksitotsin bilan stimulyatsiya, 3 tasida esa homila distressi sababli favqulodda kesarcha kesish bajarilgan.

**Xulosa:** Tekshiruv va kuzatuvlardan xulosa qilish mumkinki, agar oldingi kesarcha kesish pastki segmentda bolsa, operatsiyadan keyin kamida 3 yil otgan bolsa, homila va tos olchamlari mos kelsa hamda holat qoniqarli bolsa tabiiy tugruq mumkin. Kelgusidagi tadqiqotlar ushbu toifadagi ayollarni boshqarish taktikalarini yanada takomillashtirishga yordam beradi.